

LINGVOEKOLOGIYA VA UNING ANTROPOTSENTRIK PARADIGMA BILAN
MUNOSABATI

Suvonova Ruxsora

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola ekolingvistikaning asosiy eʼtibori milliy til va dunyo tillarida mavjud boʻlgan bilim segmentlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrib chiqishdan iborat. Til va dunyo bilimlari oʻrtasidagi bogʻliqlikdan tashqari tilning antropotsentrizmi va etnosentrizmi orasidagi munosabatlar ham tahlil qilingan.*

Kalit soʻzlar: *til segmenti, antropotsentrizm, etnosentrizm, til sohibi*

LINGUECOLOGY AND ITS RELATIONSHIP WITH THE ANTHROPOCENTRIC
PARADIGM

Suvonova Ruxsora

Student of Urgench State University

Abstract. *The main focus of this article is to consider the relationship between the national language and the segments of knowledge that exist in world languages. In addition to the relationship between language and world knowledge, the relationship between language anthropocentrism and ethnocentrism is also analyzed.*

Key words: *language segment, anthropocentrism, ethnocentrism, the owner of the language*

ЛИНГВЭКОЛОГИЯ И ЕЕ СВЯЗЬ С АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОЙ
ПАРАДИГМОЙ

Сувонова Рухсора

Студентка Ургенчского государственного университета

Абстрактный. *Основное внимание в данной статье уделяется рассмотрению взаимосвязи национального языка и тех сегментов знаний, которые существуют в мировых языках. Помимо связи языка и миропознания, анализируется также связь языкового антропоцентризма и этноцентризма.*

Ключевые слова: *языковой сегмент, антропоцентризм, этноцентризм, владелец языка*

“Har bir tilning betakror soʻzlari, atamalari shu tilni yaratgan xalqning hayot tarzini, tarixini, turmush sharoitlarini, psixologiyasini ifoda etish ehtiyojidan tugʻiladi”

Bugungi kunda tilshunoslikda “til va jamiyat”, “til va nutq”, “til va shaxs” hamda “til va ekologiya” masalalari ilg‘or yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. Mustaqillik natijasida o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tibor anchayin oshdi. Milliy tilga bo‘lgan yangicha yondashuvlar shakllana bordi. Tilda mavjud muammolarga asta-sekinlik bilan yechimlar berilyapti. O‘zbek tilshunosligida lingvoekologiya masalalari doirasida milliy til va unga oid ekologik muammolar ilmiy tadqiqotlar natijasida o‘z yechimini topmoqda. Zamonaviy jahon tilshunosligida shakllangan va o‘zbek tili ekologiyasi mukammal o‘zlashtirishni ta‘minlovchi yangi bilimlar, ustuvor vazifalar joriy qilinmoqda. Lingvistikaning turli fan sohalari bilan bir qatorda ekologiya va atrof-muhit orasidagi bog‘liqliklarni o‘rganish ham tilshunoslikdagi dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy tilshunoslikdan olingan yangi bilimlar asosida o‘zbek tili ekologiyasi va uning ekotizimini shakllantirish hamda tadqiqotlar sur‘atini yanada kengaytirish muhimdir. Shunday ekan, ushbu tadqiqot natijasida ekolingvistika – antropotsentrizm – etnosentrizm orasidagi munosabatlarni ko‘rib chiqamiz.

Tilshunoslikda lingvoekologiya yo‘nalishining paydo bo‘lishi tilda mavjud til va atrof-muhit orasidagi muammolarning yechimida hal qiluvchi ro‘l o‘ynamoqda. Lingvoekologiyaga muayyan tildagi nutqiy buzilishlar, fonetik, leksik yoki stilistik, imlo qoidalariga amal qilinmay nutqiy me‘yorlarning buzilishi kabi salbiy hodisalarni o‘rganadi. Bundan tashqari tildagi mavjud o‘zgarishlarning ijobiylik sifatlarini oshirishga e‘tibor qaratadi. Bu kabi til va nutq xatti-harakatlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy markaz shaxs va u bilan bog‘liq nutqiy jarayondir. Jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar kishilar so‘zlashuv nutqida o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Shunday ekan tilga ta‘sir ko‘rsatuvchi obyekt ham eng avvalo, shu tilda gapiruvchi shaxs bo‘ladi. Shu til egalari milliy tilning softligi, uning tabiati uchun mas‘uldir. Tilda mavjud qarashlar natijasida, til va dunyo bilimlari orasidagi bog‘liqlikdan tashqari, tilning antropotsentrizmi va etnosentrizmi konteksi ham o‘rganiladi.

Zamonaviy tilshunoslikning asosini tilning antropotsentrik nazariyasi tashkil qiladi. Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e‘tiborini shaxs omiliga qaratdi⁴. Tilshunoslar tomonidan ushbu paradigmaga nisbatan “insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishi”⁵ deyiladi. “**Antropotsentrizm** [*yun.* Anthropos – odam + *lot.* centrum – markaz] *tlsh.* Tilni inson va u mansub bo‘lgan jamiyat, shuningdek, til sohiblarining tafakkuri, ruhiyati, madaniy qadriyatlari, aksiologik qarashlari kabi nolisoniy tizimlar bilan aloqadorlikda tadqiq

⁴ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

⁵ Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: “Bookmany Print”, 2022. – B. 236.

etuvchi ilmiy paradigma”⁶. Ushbu paradigmadagi inson hayotni o‘z nuqtayi nazarini orqali bilishi, o‘zining nazariy va amaliy faoliyati orqali kashf qiladi. Masalan, kishi mavhum narsalarni o‘z ijodiy tafakkuri orqali bayon qilish huquqiga ega. Bu uning narsalarga antropotsentrik jihatdan qarashiga imkon beradi. Inson tafakkuridagi ushbu shakl uning ongi, ma’naviy dunyosi orqali yuzaga keladi. Shularning hammasi inson nutqini, uning foydalanuvchi ifodalarini tadqiq etishga imkoniyat yaratadi. Lingvoekologiyaning antropotsentrik jihatida kishi nutqidagi foydalanayotgan birliklarini qay darajada idrok etishini hisobga oladi.

Tilshunos olim professor N.Mahmudov tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi”.⁷ Tilning uning egasi bo‘lgan shaxs idrok qilish qobiliyatidan kelib chiqib lingvoekologiyada antropotsentrik paradigmani ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Tilshunoslikda e’tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmadagi asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi⁸. Aytish joizki, ilmiy paradigmadagi “til sohibi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi⁹. “Til sohibi” tushunchasi hozirgi vaqtda, asosan, quyidagi ma’nolarda ishlatilmoqda: a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya’ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant; v) o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili¹⁰. Til sohibi nutqiy kompensatsiyaga amal qilgan holatda tildan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishi lozim.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, tildan foydalanuvchi “til sohiblari” o‘sha tilning nutqiy milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu sababdan, tildan qay darajada to‘g‘ri foydalana olishlari, o‘sha tilning ekotizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Tilga xos bo‘lgan ekologik ta’sirlar ham shu til foydalanuvchilarini chetlab o‘tmasligi lozim. Antropotsentrik paradigmadagi shaxsning

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. Birinchi jild A – D. – Toshkent, 2022. – B. 121.

⁷ Махмудов Н. Тилининг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

⁸ Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64

⁹ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 5.

¹⁰ Воркачев С.Т. Кўрсатилган мақола. – Б. 8-11.

tilga qay darajada amal qilishini til ekologiyasiga mutanosib ravishda ko‘rib chiqilishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: “Bookmany Print”, 2022.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. Birinchi jild A – D. – Toshkent, 2022.
3. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1.
4. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5.
5. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.